

## **SPORT MAKTABLARIDA MASHGULOTLARNI TASHKILLASHTIRISH VA ÒTKAZISH USLUBLARI**

*Xomudjonova Feruza Komiljon qizi  
Jismoniy madaniyat kafedra mudiri dotsent  
Mominov Hasan Xushmirot o'gli*

**Annotatsiya:** Sport uchun maxsus mòllajlangan maktablarda darslarni tashkillashtirish va sifatini oshirishga vositalarni tahlil etish. Ushbu mashgulotlarni samarali olib borish uchun mòllajlangan davrni tòg'ri taqsimlash va belgilash.

**Kalit sòzlar:** sport turlari, natija, tarbiyalash, maqsad, bolalar soqliqi òspirinlarni sportga tayyorlash va tarbiyalash, trenirovka jarayonlari, tayyorgarlik tizimlari, kòp yillik trenirovka jarayonlari.

Kurashchilarini tayyorlash maxsus sport maktablarida olib boriladi. Ular bolalar-o'smirlar sport maktablari (BO'SM), ixtisoslashgan bola!ar-o'smirlar olimpiya o'rribosarlari maktablari (IB 0'0 0 'M), oliv sport mahorati maktablari (OSMM), shuningdek, sportga ixtisoslashgan maktab-internatlarga (SIMI) bo'linadi. Sport maktablaridagi ishlar ma'lum bir muayyan vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan. BO'SM sportchilarning sog'lig'ini mustahkamlash va har tomonlama jismoniy rivojlantirishni ta'minlagan holda har tomonlama rivojlangan yuqori malakali o'smir sportchilarni tayyorlashni amalga oshiradi; shug'ullanuvchilar orasidan jamoatchi yo'riqchilar va hakamlarni tayyorlaydi, uslubiy markaz hisoblanadi hamda umumta'lim maktablariga sinfdan tashqari ommaviy sport ishlarini tashkil qilishda yordam ko'rsatadi. Ixtisoslashgan bolalar-o'smirlar olimpiya o'rribosarlari maktablari oldida yuqorida aytilgan vazifalardan tashqari, yana bitta vazifa: tayyorgarlik vazifikasi turadi. Bu vazifa IB 0 '0 0 'M uchun asosiy hisoblanadi va ularning butun faoliyatini belgilab beradi. OSMM vazifalari quyidagilardan iborat: - xalqaro toifadagi sport ustalari, sport ustalari, respublika terma jamoalariga nomzodlami tayyorlash; - sport mashg'ulotining ilg'or uslublarini ishlab chiqish, takomillashtirish va trener-o'qituvchilar tarkibining ish amaliyotiga joriy etish; - BO'SM, IBO'OO'M, SIMI va boshqa sport tashkilotlarining o'quv-mashg'ulot ishida izchillikni amalga oshirish; - shahar, viloyat va respublikada o'quv-mashg'ulot ishiga uslubiy rahbarlik qilish. Sport maktabida muntazam shug'ullanish sportchilarning\_katta zaxirasini talab etadi. Shu maqsadda sportga ixtisoslashgan maktabinternatlar tashkil qilinadi. SIM I ning asosiy vazifikasi - birga ishlash sharti bilan respublika terma jamoasi uchun yuqori malakali sportchilarni tayyorlashdan iborat. Musobaqalashish mashqlari mashg'ulotlarda katta variativligi bilan ajralib turishi zarur. Maxsus tayyorgarlik mashqlari musobaqalashish harakatlarini shakli va xarakteriga o'xshash harakatlarni o'z ichiga oladi. Masalan,

yengil atletikachilarda muayyan masofaning ajratilgan qismlari bo'yicha yugurishi, musobaqalashish kombinatsiyasining elementlari va bo'laklarini yoki immitatsiya mashqlarni bajarishi shular jumlasidandir. Mashqlar tanlab olingan musobaqalashish mashqi bilan qandaydir yaxlitlikka ega bo'lgan taqdirdagina maxsus tayyorgarlik mashqlari darajasida bo'lishi mumkin. Sport mashg'ulotining qayd qilingan vositalari faqatgina jismoniy vositalar bo'libgina qolmay, balki sportchini texnik, taktik va irodaviy tayyorlash vositasi hamdir.

Dunyo bøylab har bir sport turi bøyicha maxsus maktablar tashkil etiladi. Bu maktablardan esa asosiy maqsad bu yosh sportchilarni özlari tanlagan sport turlari bøyicha ulkan muvaffaqiyatlarga erishib , jahon maydonlarida ham òz yurtining bayroqini eng balandga kòtarib, yuqori örnlarni egallashlari uchun ham muhimdir. Bu kabi maktablarning asosiy maqsadlari kelajakda soğlom va baquvvat yoshlarni voyaga yetkazish , albatta xalqimizda "Sog' tanda - soğlom aql " degan mashhur naqlga amal qilgan holda , soğlom yoshlar , soğlom va samarador fikrlarga ega bøla oladi va góyalari ham soğlom bøladi , shubhasiz . Sportga ixtisoslashtirilgan maktablarda yosh sportchilarimiz vaqtłari asosan , sport mashǵulotlari ya'ni òquv -trenirovkalar bilan band bøladi. Musobaqalarda ham raqibini maǵlubiyatga uchratib , jahon maydonlariga ham harakat qilishlari uchun ularda yetarlicha kuch -ǵayrat yiǵilib boradi. Albatta , sportning istalgan turi bilan shugullangan sportchida òziga bølgan ishonch boshqalarga qaraganda kòproq va ular irodali bølib tarbiyalanib boriladi.Shubhasiz, yuqori natijalarga erishish uchun sportchilar ma'lum bir qoidalarga amal qilishlari , masalan ,sportchilarning mashǵulotlarga alohida e'tibor qaratiladi , sanitar -gigienik qoidalariiga amal qilinib borilishi kerak, tabiatdan olinadigan tabiiy kuchlarga ya'ni sportchilar yigirma tòrt soat vaqtlarini ochiq havoda , tabiat qoynda òtkazishlari maqsadga muvofiq bøladi. Shuningdek , kurashchilarni tarbiyalash ishlari ham maxsus maktablarda olib boriladi. Kurash mashǵulotlari , trenirovkalar ham mukammla tarzda rejalshtirib, amaliy darslar ham mutaxasislar tomonidan berilib boriladi. Kòp yillik trenirovkalar haqida qisqacha qilib aytadigan bolsam , ular kòp yillikka mòljallangan bølib sportchilarga albatta samarador bølishi uchun ularning butun bir kunlarini murabbiylar tomonidan rejalshtiriladi. Undan tashqari , trenirovkalardagi kichik kichik musobaqalar uyushtirish ham yosh sportchilarimiz uchun jida ham foydalidir. Shunga òxshash maxsus maktablar òrtasida musobaqalar uyushtirish , sportchilar uchun ham yirik yirik musobaqalardan chiqishdan oldin ular uchun yaxshigina tajriba bøla oladi. Shuningdek , musobaqa qonun -qoidalardan boxabar bølishadi , özlarini qanday tuta olishni òrgana olishadi , musobaqa uslubiyatlarini , kurashish mobaynida raqibga qöllaydigan usullar va texnikalardan ham tajriba sifatida òrganib olishlari uchun imkoniyatga ega.Umumta'lim maktablarida qoshimcha qoyilgan sport darslari sportchi bølaman , ulkan muvaffaqiyatlarga erishishaman degan kurashchilar uchun yetarli emas deb hisoblayman. Shuning uchun professional sportchi bølaman degan

kurashchilar albatta , maxsus sport uchun ixtisoslashgan maktablarda òqishlari juda ham muhim. Sport maktablarida òqimoqchi bølganlar ya'ni sportchi bølaman deganlar anchagina tashkil etganligi uchun ham davlat mutasadilari bilan yetuk kadrlarni tayyorlashda hamkorlikda ishlanadi. Shuning uchun kurashchilarga kerak bøladigan jihoz va anjomlar, barcha kerakli narsalar bilan ta'minlanadi. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, barcha turdag'i maxsus,sportga ixtisoslashtirilgan maktablar faqatgina yetuk kadrlar ya'ni professional kurashchilarni yetishtirib chiqish uchun xizmat qiladi. Kurashish mobaynida kerakli bølgan usullarni , mashǵulot rejimini òrganib boradi , òrganish mobaynida yakka òzlari emas balki , tengdoshlari bilan birga mashǵulotlarga qatnashadi. Bevosita, tengqurlari bilan birga bajarilgan mashǵulotlar , trenirovkalar anchagina samarador va foydaliroq bøladi deb òylayman. Shuning uchun kurashchiilarrimiz jahon arenalariga kòtarilishni xohlaydigan bølsa, siqdildan harakat qilib , öz ustilaridagi kòproq ishlari darkor.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. T. S. Usmonxòjayev , Ò. Tursunov Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Maruzalar matni - Toshkent , 2002
2. " Trenerlik metodikasi" fanidan namunali òquv dasturi , - Toshkent , 2011
3. K. M. Mahkamjonov , X. B. Tulenova. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. "Öqituvchi" , 2004.